

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SURXONDARYO OBLASTIDA XALQ TA'LIMI TIZIMI

Umarov Jamshid Saidmuratovich

*Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Umarovjamshid510@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-2134-0503>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941–1945) Surxondaryo viloyati xalq ta'limi tizimining holati arxiv hujjatlari va davriy matbuot ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi. Urush davridagi og'ir iqtisodiy sharoit, kadrlar yetishmovchiligi, maktab binolaridan boshqa maqsadlarda foydalanilgani va o'quvchilarni ta'limga jalb qilishdagi muammolar yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchilarning front ortidagi fidokorona mehnati va ma'naviy-tashviqot ishlaridagi ishtiroki xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, xalq ta'limi, Ikkinchi jahon urushi, arxiv hujjatlari, o'qituvchi safarbarligi, Denov, Sherobod.

Аннотация: В данной статье на основе архивных документов и данных периодической печати анализируется состояние системы народного образования Сурхандарьинской области в годы Второй мировой войны (1941–1945). Освещены тяжелые экономические условия военного времени, нехватка кадров, использование школьных зданий в иных целях и проблемы вовлечения учащихся в образовательный процесс. Также рассматривается самоотверженный труд учителей в тылу и их участие в морально-пропагандистской работе.

Ключевые слова: Сурхандарья, народное образование, Вторая мировая война, архивные документы, мобилизация учителей, Денау, Шерабад.

Abstract: This article analyzes the state of the public education system in the Surkhandarya region during the Second World War (1941–1945), based on archival documents and periodical press materials. It highlights the severe economic conditions of the war period, the shortage of teaching staff,

the repurposing of school buildings for other needs, and the challenges of involving students in education. Furthermore, the selfless labor of teachers in the rear and their participation in moral and propaganda activities are discussed.

Keywords: Surkhandarya, public education, Second World War, archival documents, teacher mobilization, Denau, Sherabad.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng mudhish va keng ko'lamli fojialardan biri bo'lib, u nafaqat front chiziqlarida, balki front ortidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ham chuqur iz qoldirdi. O'zbekiston, xususan, uning janubiy sarhadi hisoblangan Surxondaryo viloyati (o'sha davrda oblast) urush yillarida frontning mustahkam tayanchiga aylandi. Biroq, urushning boshlanishi barcha sohalar qatori xalq ta'limi tizimini ham og'ir sinovlar qarshisida qoldirdi.

Maorif tizimi zimmasiga bir vaqtning o'zida ham o'quv jarayonini davom ettirish, ham yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shu bilan birga xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tezkorlik bilan tayyorlashdek murakkab vazifalar yuklatildi. Mazkur maqolada arxiv hujjatlari asosida urush yillarida Surxondaryo viloyatida maktablarning faoliyati, o'qituvchilarning yetishmovchiligi va ularning matonati, shuningdek, o'quvchilarni ochlikdan saqlab qolish yo'lida qilingan sa'y-harakatlar tahlil qilinadi. Ushbu mavzuni o'rganish o'zbek xalqining g'alaba yo'lidagi beqiyos hissasini va front ortidagi qahramonligini xolis baholash imkonini beradi.

MUHOXAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Boshlanib ketgan urush maorif tizimida ilgari belgilangan barcha

tadbirlarni vaqtincha to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. Chunonchi, urush O'zSSR XKS va O'z KP (b) MK ning 1941- yil 30 -may – 3 iyunda «Bolalar ijodiyoti Respublika va oblast olimpiadasini o'tkazish va unga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida» qabul qilgan 580-sonli qarorini bajarishga imkon bermadi. Shu bois olimpiada o'tkazish to'g'risidagi qaror 1941- yil 26 -iyun kuni bekor qilindi[1].

Oblast xalq ta'limi rahbariyatiga mutaxassislar tayyorlash masalasida qat'iy topshiriqlar berilib, maktabni yuqori sinf o'quvchilar va soha xodimlar ichidan tanlab olingan yoshlar temir yo'l transporti uchun mutaxassisi sifatida o'qishga jalb qilindi. Natijada, Temir yo'llarni mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash uchun O'zSSR Xalq Komissarlar Soveti va O'z KP Markaziy Komitetining 1941 yil 5-10 maydagi 500-sonli Qarori bilan 1941 yil 5 iyundan 20 iyunga qadar Respublikaning shahar, kolxoz va boshqa qishloq yoshlari jumlasidan fabrika-zavod ta'limi maktablarida 16-17 yoshdagi erkaklardan 6400 kishi, 1941 yil 5-20 avgustda hunar maktablari va temir yo'l maktablariga 14-15 yoshdagi erkaklardan 2950 kishi safarbar qilinishi ko'zda tutildi. Shu jumladan, Surxondaryo viloyatidan fabrika-zavod ta'limi maktablariga 150 kishi, Buxoro oblastiga Qarshi temir yo'l maktabida 75 kishi (25 ta shahardan, 50 ta qishloqdan) o'qish uchun jo'natilishi belgilandi[2]. Ammo, ikkinchi jahon urushi fabrika-zavod ta'limiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'quvchi va o'qituvchilar yetishmovchiligi bois Kakaydidagi bilim yurti yopiladi. Temir yo'l sohasidagi FZU lar ham jiddiy qiyinchiliklarga uchraydi[3:38].

Bo'layotgan urushda g'alaba qozonish, avvalo xalqning ruhiyatiga, uning urushga munosabatiga, ma'naviy barkamolligiga va siyosiy ongilligiga bog'liq edi. Shu maqsadda omma o'rtasida o'tkazilgan targ'ibot va tashviqot ishlarining o'rni nihoyatda kattadir. O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasining 1941 yil 8 avgustda qabul qilgan «Harbiy sharoitda Respublikada siyosiy agitatsiya va propagandani yaxshilash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq Surxondaryo viloyatida ham targ'ibot-tashviqot markazlari tashkil etildi. Targ'ibotchi o'qituvchilar sanoat korxonalari,

klublar va choyxonalarda tashviqot ishlarini olib bordilar. Bevosita targ'ibotchi o'qituvchi guruhlarning ishtiroki bilan 1941- yilning iyun-iyul oylarida viloyat miqyosida fashizmga qarshi 570 ta miting bo'lib o'tdi va bu mitinglarda 85 ming kishi ishtirok etdi. Ularda «Fashizmga o'lim», «Manfur dushmanga bir qarich ham yerimizni bermaymiz», «Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun» shiorlari o'rta tashlandi va kishilarni yangi mehnat zafarlariga erishishga chorladi. 1941–1942 yillarda Sherobod tumani Xatak qishlog'i maktabi direktori Sohiba Ahmedovaning viloyat matbuotida e'lon qilingan «Qurib ketsin fashizm», «Oy borib omon kel» singari she'rlari xalqimizda katta taassurot qoldirgan[4:127].

Maorif va madaniyat xodimlari og'ir sharoitga qaramay, jonbozlik ko'rsatdilar. 1942 yilning dekabr oyida Denov rayispolkomida bo'lib o'tgan majlisda rayONO mudiri Hakimovning ma'ruzasidan keyin rayonda o'qituvchilar tayyorlaydigan 2 va 4 oylik kurslar ochildi. Unga jami 105 kishi jalb etildi. Tinglovchilarga kunlik payok belgilanib, kolxozlarning daromadidan 400 gramm non, 100 gramm un, 0.25 gramm guruch, 0.25 gramm moy berildi[5]. Sho'rchi rayonidagi 6-sonli maktabda 305 nafar o'quvchidan 22 nafari «Mehnat» kolxozi raisi Jo'rayev Meliboy va Frunze nomli kolxoz raisi Nurmatov Mullalar doimiy ravishda o'qishni barbod qilib, o'quvchilarni maktabga qo'yishmagan. «Yangi kuch» kolxozining raisi Yo'ldoshev O'rinboy va «Qizil g'uncha» kolxozi raisi Nurmatov O'rmon maktab binolarini pilla qurtini boqish uchun olib qo'yishgan[6].

Maorif xodimlari og'ir sharoitga qaramay, jonbozlik ko'rsatdilar. 1942 yilning dekabr oyida Denov rayispolkomida bo'lib o'tgan majlisda rayon ta'limi mudiri Hakimovning ma'ruzasidan keyin tumanda o'qituvchilar tayyorlaydigan 2 va 4 oylik kurslar ochiladigan bo'ldi. Unga jami 105 kishi jalb etildi. Tinglovchilarga kunlik payok belgilanib, kolxozlarning daromadidan 400 gramm non, 100 gramm un, 0.25 gramm guruch, 0.25 gramm moy beriladigan bo'ldi[7].

1943-yil bahoridan boshlab Xatak maktabining direktori Boymanov Bobomurodning tashabbusi bilan har kuni katta qozonda atala pishirilib, och qolgan bolalarga ulashilgan. Shu yo'l bilan o'quvchilarni maktab ta'limiga jalb etishgan. Uning hamqishlog'i, brigadir Rahmonqul Eshto'xtarov o'quvchilarni ochlikdan qirilib ketishlariga yo'l qo'ymaslik uchun tog'ning tepasida g'alla ektirib, bir qismini davlatga, qolganini maktabga berib turgan. Ularning tashabbusidan ruhlangan Jarqo'rg'ondagi Qizil Oktyabr kolxozi (hozirgi Surxon xo'jaligi) rahbariyati Tojikiston SSR, Qabodiyon rayonidagi Mehnat-rohat kolxozining raisi, mashhur paxtakor Eshmurod Bobogulovdan 2 ta doshqozon olib keltiradi. Shundan keyin to urush tugaguncha har kuni Surxon daryosi bo'yida atala pishirilib, och qolgan o'quvchilarga tarqatilgan[8].

Termiz pochta-shifoxonasi boshlig'i Shmayser (millati nemis) o'z xodimlarining och qolayotgan o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash maqsadida xodimlar uchun ishda tushlik tayyorlashni buyuradi va tushlikka ularning o'quvchilari ham kelishiga ruxsat beradi. Ta'lim tizimidagi fojiali vaziyat respublika rahbariyatini zudlik bilan chora ko'rishga majbur etdi. 1943-yil iyulida O'zbekiston SSR XKS va O'zkompartiya MK qo'shma yig'ilishi o'tkaziladi. Unda maktablarning holatiga tanqidiy baho berildi. Ta'kidlandiki, 1943-1944 o'quv yilida respublika bo'yicha jami 300 ming nafar maktab o'quvchilari og'ir sharoit tufayli maktabda o'qimagan. O'qituvchilarning katta qismi boshqa ishlarga o'tib ketgan. Mahalliy sovetlar o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga qaytarish uchun birorta ish qilmagan. Shuni hisobga olib majlis 1943-1944 o'quv yilida o'quvchilarni maktabga jalb etish to'g'risidagi 896-sonli Qaror qabul qiladi. Qarorda maktablarni ta'mirlash, 1943-yilning 1 sentyabridan e'tiboran barcha maktablarda o'quvchilarni issiq ovqat bilan ta'minlash, butun qishga yetadigan yoqilg'i g'amlab qo'yish, 1943-1944 o'quv yilidan boshlab barcha pedinstitut va pedagogika bilim yurtlarida sirtqi bo'limlarni tashkil etish,

ularning qamrovini 5000 kishiga yetkazish; 1944-yil 1-yanvaridan Toshkentda o'qituvchilar malakasini oshirish institutini qayta tiklash; 1943-yil 1-sentyabrdan Samarqand pedagogika institutini tiklash vazifasi qo'yildi[9].

Surxon vohasidagi maktablarni o'qituvchi mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida 7 sinfni bitirgan iqtidorli o'quvchilar Sherobod va Termizdagi yarim yillik o'qituvchilar tayyorlash kurslariga jo'natilgan. Shunday holat bo'lganki, hukumatning yuqoridagi qarorini bajarish maqsadida rayispolkomning ko'rsatmasi bilan Sherobodagi maktabning 4 sinf o'qituvchisi urushga ketganligi munosabati bilan shu maktabning 6 sinf o'quvchisi o'sha 4 sinfga dars berishga qo'yilgan. O'qituvchilarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1943-45 yillar davomida ularga har oy 25 kgdan bug'doy berishgan. O'quvchilarni ta'limga jalb etish uchun maktabda atala pishirish an'anasi davom ettirilgan[10].

Urush sharoitida bolalarning tinimsiz dala ishlariga jalb qilinishi, o'qituvchilarning frontga va ishlab chiqarishga safarbar etilganligi, o'quv qurollarining surunkali yetishmovchiligi, bularning hammasi maktab ta'limi uchun jiddiy sinov bo'ldi. Chunonchi, 1942-yil 2-noyabrda Sho'rchi rayon maorif bo'limi mudiri Samijonov armiyaga ketgani uchun o'rniga maktablar inspektori Yaqubov tayinlandi. Rayon maorif bo'limi metod kabineti mudiri etib, 27 yillik ish stajiga ega bo'lgan, oliy ma'lumotli, RSFSR da xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Xarametskiy tayinlandi[11].

Sherobod rayispolkomining 1943-yil 23-iyuldagi 106-sonli qaroriga ko'ra, frontga jo'natishdan tashqari qolgan oziq-ovqatlardan 200 kg bug'doy va 11 kg moyni maktab o'quvchilar muassasalari va kasalxonalarga berish ko'zda tutilgan[12]. Bo'sh yer uchastkalaridan ham unumli foydalanish yo'lga qo'yildi. Chunonchi, 1943-yil 30-noyabrda Sherobod Rayispolkomi 114-sonli Qarorni qabul qiladi. Unga ko'ra, 1944-yilda o'z xo'jaligiga sabzavot va poliz mahsulotlari ekish uchun Sherobodagi harbiy kazarma va yasli oralig'idagi 0.5 gektar yerni bolalar yalisiga

berildi[13].

Surxondaryo oblastidagi yosh o'quvchilar o'rtasida kommunistik tarbiyani kuchaytirish maqsadida bayram vaqtlarida (1 may, 7 noyabr, Lenin, Stalin tug'ilgan kunlari) 1-7 sinflarning o'quvchilarini (u davrda majburiy ta'lim 7 yillik edi) safga tizib, xor bo'lib, ertalabdan to tushga qadar qishloqni boshidan oxiriga qadar, ya'ni 3-5 kmlik masofani bosib, Stalin va kommunistik partiyani madh etuvchi qo'shiqlarni aytishga majbur etishgan. Bunda har bir zveno, drujina o'z qizil bayrog'i bilan safda qatnashishi shart edi. Oldinda yuruvchi pionerlar esa, katta bayroqni ko'tarib olishar edi. Kimda-kim siyosiy tadbirida sust qatnashsa, ertasi kuni uning masalasi jiddiy tarzda ko'rilar, «aybdorlar» ko'p hollarda jinoiy javobgarlikka tortilar edi[14].

Maktab o'qituvchilari va o'quvchilarini ruhiyatini ko'tarishda san'atning roli beqiyos bo'ldi. Respublika bo'yicha tuzilgan 30 dan ziyod konsert brigadalari maktablarga jalb etildi, ayniqsa, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Tavakkal Qodirov singari san'atkorlar Surxon vohasining har bir qishlog'iga qadar borib konsertlar berishdi. Ko'pgina qishloqlarda san'atkorlar uchun hatto tuzuk sahna topib berisholmagan bo'lsalar-da, ular yo'lini topib, xalqqa xizmat qilganlar. Yomg'ir yog'ib turgan vaqtlarda ham san'atkorlar o'z mahoratlarini namoyish qilib, elning ko'nglini ko'targanlar[15].

Maktablar uchun milliy pedagogik mutaxassislarni tayyorlashda mahalliy olimlarni xizmati alohida ahamiyatga ega bo'lib, pedagogik mutaxassis tayyorlashga katta e'tibor berildi. Maktab ta'limini yanada yuksaltirish uchun fizika-matematika fanlari doktorlari T.N.Qori Niyozov, T. A. Sarimsoqov, geologiya fanlari doktori H. M. Abdullayev va A. S. Uklonskiy, energetik A. N. Askochenskiy va boshqa ko'pgina olimlar jalb etildi.

Boysun rayonida 1943- yil 1-oktyabrda 248 nafar o'qituvchilar ishlab, shuningdek evakuatsiya vaqtida kelib qolgan o'qituvchilar dars bera boshladilar. 1943-yildan boshlab o'qituvchilarni moddiy, ma'naviy va iqtisodiy

qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan gugurt, kirsovun, shakar, kerosin, choy, ko'rpa, makaron, guruch va kiyim-kechak naryad orqali berib borildi. 1940 – 1943 yillarda N. Xolmonov Boysun rayoni xalq maorifi bo'limi mudiri bo'lib, U armiya safiga chaqirilgach, bu vazifa Sho'rchi tuman partiya qo'mitasining targ'ibot-tashviqot bo'limi mudiri U Doniyorov zimmasiga vaqtincha yuklatilgan. 1943-yilda U. Doniyorov frontga jo'natilgandan keyin A.Mo'minov xalq maorifi bo'limi mudiri vazifasini bajargan. U aslida xo'jamulkilik bo'lib, tuman markaziga otda kelib-ketar va maktablar ishini nazorat qilardi[16].

Urush davrida o'qituvchilarning ko'pchiligi armiya safiga chaqirilib, ochlik va muhtojlik tufayli yuzlab o'g'il-qizlar o'qishni vaqtincha to'xtatib, 11-15 yoshdanoq dalada ishlashga majbur bo'lardi. To'liqsiz oliy ma'lumotli P.I Ogay, M.Yugay dastlab Mirshodida, so'ngra Elboyon temir yo'l bekati qoshidagi 5-maktabda o'qituvchilik qildi. Pyotr Ivanovich Ogay №5 va №1 –o'rta maktablarda direktori, Surxondaryo va Sirdaryo viloyat xalq maorifi bo'limi mudirining o'rinbosari darajasiga ko'tarildi. 1944-1945 o'quv yilida shaharning o'qish yoshidagi aholisidan atigi 68% o'qishga jalb qilingan bo'lsa, 1947-1948 o'quv yilida esa o'qishga jalb qilinganlar miqdori 86% ni tashkil qildi[17].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ikkinchi jahon urushi yillari Surxondaryo viloyati xalq ta'limi tizimi uchun misli ko'rilmagan sinov davri bo'ldi. Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, urushning dastlabki yillarida maktab binolarining boshqa maqsadlarga yo'naltirilishi, kadrlar va o'quv qurollarining keskin yetishmovchiligi hamda bolalarning ommaviy ravishda dala ishlariga jalb etilishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq, og'ir iqtisodiy sharoit va ocharchilikka qaramay, viloyat maorif xodimlari yuksak matonat ko'rsatdilar. Urush davri Surxondaryo maktablari nafaqat bilim maskani, balki xalqning ma'naviy birligini ta'minlovchi va yosh avlodni eng qiyin sharoitlarda ham hayotga tayyorlovchi strategik markaz vazifasini o'tadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 34-ish, 61-varaq.
2. Sherobod tuman davlat arxivi, C-42-fond, 1-ro‘yxat, 369-ish, 31-33-varaqlar.
3. Yoriyev B. Qora oltin ijodkorlari. –Termiz, 1999. –B. 38.
4. Umarov I. va boshqalar. Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar. 127-bet.
5. Denov tuman davlat arxivi, 6-fond, 1-ro‘yxat, 89-ish, 113-varaq.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 161-ish, 279-varaq.
7. Denov tumani davlat arxivi, 425-fond, 1-ro‘yxat, 29-ish, 10-varaq.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 63-varaq.
9. Sherobod tuman davlat arxivi. C-42-fond, 1-ro‘yxat, 369-ish, 78-79-varaqlar.
10. Sherobod tumani davlat arxivi, 42-fond, 1-ro‘yxat, 15-ish, 96-varaq.
11. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 30-ish, 309-varaq.
12. Sherobod tuman davlat arxivi. C-42-fond, 1-ro‘yxat, 371- ish, 154-varaq.
13. Sherobod tuman davlat arxivi. C-42-fond, 1-ro‘yxat, 371- ish, 26-varaq.
14. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 45- fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 77-varaq.
15. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 45-fond, 1- ro‘yxat, 28-ish, 45-varaq.
16. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 45-fond, 1- ro‘yxat, 35-ish, 55-varaq.
17. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 45-fond, 1- ro‘yxat, 35-ish, 59-varaq.